Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

UDK: 378.2
ORCID : 0009-0009-6567-9855

O‘QITISHNING AN’ANAVIY HAMDA KREDIT-MODUL TIZIMI TAHLILI

Mashrapov Qaxramon Olimjonovich
Namangan muhandislik- qurilish instituti
Tayanch doktoranti
E-mail: mashrapovqaxramonbek1987@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalaridagi o‘qitishning an’anaviy hamda kredit-modul ta’lim tizimi tahlil qilingan. Tadqiqotimizning maqsadi an’anaviy va kredit-modul tizimini taqqoslagan holda kredit tizimining yutuqlari, talabalarni bilim olishga undashi hamda ularning bilimini baholashda shaffof bo‘lishi, fanlar qisqartirilib o‘qitilishi, akademik mobillikni yo‘lga qo‘yish orqali kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga imkoniyat yaratishi, mutaxassis tayyorlashda qulayligi, afzallik tomonlarini yoritishdir. Maqolaning kirish qismida: yurtimizda oliy ta’lim muassasalaridagi mutaxassislar tayyorlash jarayonida hukumatimiz tomonidan yaratilayotgan (zamonaviy bino, o‘quv xonalar, amaliy, laboratoriya mashg‘ulotlarini olib borish uchun kerakli zamonaviy jihozlar, rivojlangan davlatlarda talabalar hamda professor o‘qituvchilarning stajirovka qilishlari uchun pul mablag‘lari davlat hisobidan berilishi, va boshqalar) sharoitlar va ular tomonidan amalga oshirilayotgan samarali ishlar yoritilgan. Tadqiqotimiz an’anaviy ta’lim tizimida qo‘laniladigan asosiy metodlar tushuntirish, savol-javob metodidan foydalanilgan bo‘lsa kredit-modul tizimiga mos bo‘lgan interfaol (kichik guruhlarda ishlash, keys-stady) metodlardan foydalanilgan holda olib borildi. Adabiyotlar tahlilida: an’anaviy hamda kredit-modul ta’lim tizimi sharoitida ilmiy izlanishlar olib borgan tadqiqotchilarning fikr va mulohazalari, takliflari yoritilib, ular tomonidan yaratilgan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, ilmiy nashrlardan hamda internet ma’lumotlaridan foydalanilib olib borildi. Tadqiqot natijalari qismida esa an’anaviy hamda kredit-modul tizimida olib borilgan tajribalarga asoslanib erishilgan natijalar, so‘ngi qismda esa foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati keltirilgan. Xulosa qismida esa o‘rganilgan adabiyotlar va tadqiqotchilarning erishgan natijalari hamda tavsiyalariga tayangan holda tadqiqotimizda erishilgan natijalarga asoslanib tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: kredit-modul, ta’lim, mutaxassis, dars, mashg‘ulot, ma’ruza, amaliy, seminar, laboratoriya, an’anaviy o‘qitish, sillabus, ishchi dastur.

АНАЛИЗ ТРАДИЦИОННОЙ И КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ОБУЧЕНИЯ

Аннотация: В статье проводится анализ традиционной и кредитно-модульной систем обучения в высших учебных заведениях. Цель исследования заключается в сравнении эффективности кредитной системы с традиционной и кредитно-модульной системами, в стимулировании учебной активности студентов, обеспечении объективности оценки их знаний, сокращении продолжительности преподавания дисциплин, а также в создании условий для развития профессиональных компетенций через улучшение академической мобильности. Процесс подготовки специалистов в высших учебных заведениях нашей страны, поддерживаемых правительством, направлен на создание условий для качественного образования. В статье подчеркиваются преимущества современной инфраструктуры,

включая новые здания, оснащенные аудитории и необходимое оборудование для практических и лабораторных занятий. Также уделяется внимание финансированию стажировок студентов и преподавателей в развитых странах, а также предоставлению средств из государственного бюджета. Все эти меры способствуют эффективной подготовке высококвалифицированных специалистов. Наше исследование проводилось с использованием объяснительного метода вопросов и ответов, который является основным в традиционной системе образования, а также интерактивных методов, таких как работа в малых группах и кейс-стади, совместимых с кредитно-модульной системой. При анализе литературы были выделены мнения и предложения исследователей, которые проводили научные исследования в условиях как традиционной, так и кредитно-модульной системы образования, используя созданные ими учебники, учебные пособия, научные публикации и информацию из Интернета. В разделе результатов исследования представлены данные, полученные в ходе экспериментов, проведенных в рамках обеих систем. В заключительной части изложены рекомендации, основанные на достигнутых результатах, с опорой на выводы и рекомендации исследователей, рассмотренных в изученной литературе.

Ключевые слова: кредитный модуль, образование, специалист, урок, обучение, лекция, практикум, семинар, лаборатория, традиционное обучение, учебный план, рабочая программа.

ANALYSIS OF TRADITIONAL AND CREDIT-MODULE SYSTEM OF TRAINING

Abstract: This article analyzes the traditional and credit-module system of teaching in higher education institutions. The purpose of our research is to compare the achievements of the credit system with the traditional and credit-module system, to encourage students to learn and to be transparent in the assessment of their knowledge, to shorten the teaching of subjects, to create an opportunity to develop professional competencies by establishing academic mobility, It is easy to prepare a specialist, highlighting the advantages. In the introduction of the article: in the process of training specialists in higher education institutions in our country, created by our government (modern building, classrooms, necessary modern equipment for practical and laboratory training, money for internships of students and professors in developed countries the provision of funds from the state account, etc.) conditions and effective work carried out by them are highlighted. Our research was conducted using explanatory, question-and-answer method, the main methods used in the traditional educational system, and interactive (work in small groups, case-study) methods compatible with the credit-module system. In the analysis of the literature: the opinions and suggestions of the researchers who conducted scientific research in the conditions of the traditional and credit-module education system were highlighted, using the textbooks, training manuals, scientific publications and Internet information created by them. In the research results part, the results obtained based on the experiments carried out in the traditional and credit-module system are presented, and in the last part, the list of used literature is presented. In the conclusion part, recommendations are given based on the results achieved in our research, relying on the results and recommendations of the studied literature and researchers.

Key words: credit module, education, specialist, lesson, training, lecture, practical, seminar, laboratory, traditional teaching, syllabus, working program.

KIRISH. "Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir" [2]. Prezidentimizning ushbu aytgan so'zlarida chuqur ma'no ifodalangan bo'lib, o'sib kelayotgan yosh avlodni bilimli, o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lib yetishishlari uchun davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilayotganidan desak mubolag'a bo'lmaydi. Buning uchun albatta yurtimizda katta imkoniyatlar yaratilgan. Har bir soha egalarini tayyorlash ularga mutaxassislik diplomini taqdim etish OTM lar zimmasiga yuklatilgan. Yaqin yillargacha (2021-yilgacha, TATU da 2018-yilgacha) OTM larda o'quv jarayonida an'anaviy ta'lim tizimidan foydalanib kelindi. Bu tizim ham yosh kadrlarni tayyorlashda o'zining samarali hissasini qo'shdi. Ammo bugun texnika asri davrida yashar ekanmiz biz ham OTM larda o'qitish tizimini yangicha usulga o'zgartirish uchun ehtiyoj tug'ilishi tabiiy edi. Bugun rivojlangan davlatlar OTM larida an'anaviy o'qitish tizimidan voz kechilib yangi kredit-modul tizimiga asoslanib o'quv jarayonini olib borish keng yo'lga qo'yilgan.

Xususan kredit-modul tizimining rivojlanish jarayoni 1870-yil AQSh davlatiga borib taqaladi. Dastlab bu tizim kredit soati deb atalgan. Bu tizim sekin asta ommalashganidan so'ng an'anaviy ta'lim tizimiga bo'lgan extiyoj kamayib, bu tizimdan voz kechildi. An'anaviy ta'lim tizimidan voz kechilishiga sabab talabalarning ko'p vaqtlari auditoriyada o'tishi, fan o'qituvchisi mashg'ulot vaqtida yakka hukumron bo'lishi, talabalarning erkin fikr bildirishlariga e'tibor qaratilmas edi.

Kredit tizimi kelganidan so'ng fanlar (mutaxassislik uchun zarur bo'lmagan) qisqartirildi. Bunda esa albatta talabaning yuki kamaydi. Talaba har semester an'anaviy ta'lim tizimida 18 ta fandan imtixon topshirsa, kredit tizimida esa atiga 4-6 ta fandan imtixon topshirar edi. Bu albatta talabalarga ma'qul keldi. Fan o'qituvchilqrini ham auditoriya mashg'ulotlaridagi yuki kamaydi. Shu tariqa ham talabalar uchun ham o'qituvchilar uchun kredit tizimi ma'qul bo'ldi. Shunga qaramasdan fanlarni modullashtirishda, fan sillabuslarini ishlab chiqishda, talabalar bilimini baholashda kamchiliklar yuzaga kelmoqda.


Yurtimizdagi OTM larida o'quv jarayonini kredit-modul tizimiga o'tkazish bo'yicha dastlabki qadami O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847 sonli "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoniga[1] muvofiq, oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish, xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakillantirishga qaratilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish, oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish edi[14].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. An'anaviy ta'lim atamasi, birinchi bo'lib 17-asrda shakllanib bu ta'lim o'qitishning sinfda (auditoriyada) tashkil etilishini anglatadi. Bu tizim Ya.A.Komenskiy tomonidan yaratilgan va hanuzgacha dunyo maktablarida keng tarqalgan[15]va tamoyillarga ajratilgan (1-rasmga qarang).

Sifatli ta’lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz



1-Rasm. An’anaviy talim tamoyillarining guruhlanishi.

An‘anaviy o‘qitish asosini, Ya.A. Komenskiy tomonidan tuzilgan, pedagogika tamoyillari tashkil etadi. Bunga quyidagilar kiradi: ilmiylik; tabiatga monandlik (o‘qitish rivojlanish bilan belgilanadi va shakllanmaydi); uzviylik va tizimlilik; o‘zlashtiruvchanlik (ma‘lumdan noma‘lumga, soddadan murakkabga); mustahkamlash (takrorlash, takrorlash …) onglilik va faollik; nazariyaning amaliyot bilan bog‘liqligi; yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish[3].

Zamon shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda an’anaviy ta’limning ham o‘ziga xos kamchiliklari namoyon bo‘la boshladi. An’anaviy ta’limning kamchiliklari: fikrlashdan ko‘ra xotiraga ko‘proq e’tibor qaratildi; ijodkorlikni, mustaqillikni, faollikni rivojlantirishga rivojlantirishga hissa qo‘shmaydi; axborotni idrok etishning individual xususiyatlari yetarlicha hisobga olinmagan; o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi munosabatlarning subyektiv-obyektiv uslubi ustunlik qiladi. Albatta bular talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllanishiga to‘sqinlik qiladi degan tushunchaga kelishimizga sababchi bo‘ladi.

XXI-asr boshlarida ilmiy izlanish olib borgan rus olimlari V.V.Serikov, V.I.Slobodchikova, I.S.Yakimanskayaning tadqiqot natijalariga ko‘ra an’anaviy ta’lim eskirganligi (an’anaviy ta’limda faqat o‘qituvchi yakka hukumdor bo‘lib, talabalar faqat auditoriyada o‘rgangan materialga tayangan. Mustaqil bilim o‘rganishga yo‘naltirilmaganligi tufayli faqat o‘qituvchi bergan bilimgagina tayangan) ta’kidlaydilar.

M.U.Dexkanova [4] an’anaviy ta’limning kamchiliklarini quyidagicha ifodalaydi: o‘quvchilar passiv ishtirokchi bo‘lib qoladilar; o‘qituvchining to‘la nazorati barcha o‘quvchilar uchun motivasiyani vujudga keltirmaydi; o‘quvchilar zqituvchi bilan bevosita muloqotga kirisha olmaydi; eslab qolish darajasi hamma o‘quvchilarda bir xil bo‘lmaganligi sababli, guruh bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi past bo‘lib qolishi mumkin; mustaqil o‘rganish va yechimlar qabul qilish uchun sharoitlar yaratilmaydi.

I.Norov, Y.Javlon [8]ning fikriga ko‘ra an’anaviy ta’lim texnologiyasi – muayyan muddatga mo‘ljallangan, ta’lim jarayoni ko‘proq o‘qituvchi shaxsiga qaratilgan bo‘lib, o‘qitishning an’anaviy shakli, metodi va ta’lim vositalarining majmuidan foydalangan holda ta’lim-tarbiya maqsadiga erishishdir.

M.U.Hasanova, M.G‘.Jumanovalarning fikriga ko‘ra O‘zbekiston OTM o‘qitish amaliyotida kredit – modul tizimini joriy

etishdan maqsad: O‘zbekiston OTM faoliyatida hozirgacha amalda qo‘llanilib kelinayotgan an’anaviy tizim hozirgi tezkor axborot asri talablarini bajara olmasligi; O‘zbekiston OTM larida talabalar asosan, tinglovchi bo‘lib qolayotganligi, natijada amaliyotning sustligidan yetishib chiqqan kadrlarning sohalarda yaxshi natijalar bera olmayotganligi; baholash tizimidagi bo‘shliqlarning ko‘pligi, va buning natijasida baholash jarayonlarida korrupsiyaning ildiz otishi; talabaning novatorligi sustligi. Ya’ni, bu tizimda talabaga vazifa beriladi, talaba esa uni bajaradi va shu orqali baho oladi. Talabaning ijodiy, mustaqil ishlarga kam urg‘u beriladi; eng muhimi, bu tizimning jahonning rivojlangan ta’lim tizimlariga mos emasligi. Bu esa, ular bilan raqobatga tayyor emasligimizga asosiy sabab bo‘lmoqda[5].

Kredit-modul tizimini respublikamiz tadqiqotchilari S.K.Qahhorov, I.I.Raxmatov Sh.M.Muhammedov[6], M.L.Boltayeva[12], Q.O.Mashrapov [13], Xudoyberdiyev.N.M, BoratovF.Sh, Bektoshev.O.K, Meliziyayev.O.O[9]lar ilmiy maqolalarida asoslaganlar.

OTM larda o‘quv jarayon kredit-modul tizimiga o‘tkazilganidan so‘ng sifatli kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi desak adashmagan bo‘lamiz. Umid qilamizki bu tizim bizning ham OTM larda rivojlanib jahondagi rivojlangan AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Kareya, Germaniya kabi davlatlardagi OTMlari singari taniqlikka erishadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. OTM larida o‘quv jarayon asosan 2021-2022-o‘quv yilidan Yevropa (ECTS) kredit-modul tizimiga o‘tkazildi. Dastlab bu jarayonda o‘quv faoliyatni tashkil etish professor-o‘qituvchilarga biroz qiyindek tuyuldi. Ammo kredit-modul tizimining mazmun mohiyati tushuntirilgandan so‘ng bu muammolar bartaraf etildi. O‘quv-rejalar yangi tizimga moslanib o‘quv jarayoni tashkil etildi. Kredit-modul tizimining asosiy maqsadi talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

ECTS tizimidan foydalanish natijasida quyidagi afzalliklarga ega ekanligi namoyon bo‘ldi: oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida soddalashgan malakaning tan olinishi; talaba yuklamasining bajarilishidagi shaffoflik; oliy ta’lim tizimidagi islohotlarga moslashuvchanligi; ta’lim traektoriyasida o‘quv dasturlarini o‘zlashtirishning moslashuvchan imkoniyatining kengligi.

ECTS tizimi o‘quv dasturlarini o‘zlashtirishni osonlashtirib, barcha turdagi dasturlar uchun qulay hisoblanadi. ECTS davlatlar o‘rtasida, shuningdek, turli universitetlar o‘rtasida akademik mobillik uchun keng sharoit yaratadi. Bundan tashqari, tizim o‘z-o‘zini o‘rganish tizimi ham hisoblanadi. Shuning uchun ham “ECTS” so‘zi yoyiq holatda “Yevropa kreditini olib o‘tish va yig‘ish tizimi” degan ma’noni anglatadi.

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e’tirof etiladi: o‘quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish; bitta fan, kurs (kredit)ning qiymatini aniqlash; talabalar bilimini reyting ball asosida baholash; talabalarga o‘zlarining o‘quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish; ta’lim jarayonida mustaqil ta’lim olishning ulushini oshirish; ta’lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo‘yilgan talabdan kelib chiqib o‘zgartirish mumkinligi[11].

Kredit-modul tizimida talabalar bilimini baholash shkalasi Ukrainaning Xarkov institutida quyidagicha ishlab chiqilgan (2-jadvalga qarang).

2-jadval

ECTS shklasi	Milliy miqyosga ko‘ra	Ballar yig‘indisi
A	Ajoyib	90-100

BC	Yaxshi	75-89
DE	Qoniqarli	60-74
FX	Qabul qilish imkoniyati qoniqarsiz	35-59
F	Malaka oshirish kursi qoniqarsiz	1-34

Kredit tizimining xususiyatlari modul tarkibiga o‘z tuzatishlarini kiritadi. Birinchi galda, bu ayrim dars soatlarning qisqarishi va boshqa o‘quv mashg‘ulotlarining ko‘payishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu tabiiy ravishda ta‘lim ishlarining strukturasi va mazmuniga ta‘sir ko‘rsatadi. Agar o‘quv rejasiga muvofiq bir semestrda xorijiy tillarni o‘qitishning umumiy metodikasi kursini o‘qish uchun 50 soat auditoriya mashg‘ulotlari (32 soat ma‘ruza va 18 soat seminar) rejalashtirilgan bo‘lsa, hozirga kelib bu ishga 2 kredit ajratiladi: 16 soat ma‘ruza, 16 soat amaliy mashg‘ulotlar, 16 soat o‘qituvchi rahbarligida mustaqil ish (O‘RMI)[10].

ECTS kredit-modul tizimida talaba har bir o‘quv yili uchun to‘plab borishi kerak bo‘lgan kreditlar miqdori oldindan belgilab qo‘yilgan. Bu 60 kreditni tashkil qiladi. Har bir semestr uchun belgilangan kreditlar miqdori esa 30 kreditni tashkil qiladi. Bundan tashqari, talaba har bir kreditni qo‘lga kiritish uchun belgilangan o‘quv yuklamasi miqdori ham aniq va bu 25-30 soat oralig‘ida. Talabalarning har o‘quv yilidagi o‘qish yuklamasi o‘rtacha 1500-1800 soat (60*25 = 1500; 60*30= 1800), har semestrdagi o‘qish yuklamasi esa o‘rtacha 750-900 soatni tashkil etadi (30*25 = 750; 30*30= 900). Talabaning bir yillik va bir semestrdagi o‘quv yuklamasi bu miqdordan ko‘p ham, kam ham bo‘lishi mumkin emas[7].

Kredit-modul tizimida fanlar modullashtirilgan holda o‘qitiladi. Xorijiy tajribalarga ko‘ra bir semestrda 2-4 tagacha modullar asosida o‘quv jarayoni tashkil etiladi.

Jumladan, bilamizki an’anaviy ta’lim o‘qituvchiga yo‘naltirilgan o‘quv jarayoni hisoblanib bunda o‘qituvchi faol bo‘ladi. Zamonaviy talabaga yo‘naltirilgan ta’limda esa talaba faol bo‘lib mustaqil bilim olishga intiladi.

Quyidagi jadvalda an’anaviy hamda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim ya’ni kredit-modul tizimi taqqoslanadi (3-jadvalga qarang).

An’anaviy ta’lim	**Zamonaviy shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim (kredit-modul)**
Dars mashg‘ulotlar asosan auditoriyalarda tashkil etiladi	Dars mashg‘ulotlar auditoriyada, ishlab chiqarish korxona (tashkilot)larda tashkil etiladi
Dars mashg‘ulotlarida o‘qituvchi faol bo‘ladi	Dars mashg‘ulotlarida talaba faol bo‘ladi
Fan o‘qituvchisini tanlash imkoni yo‘q	Fan o‘qituvchisini tashlashga imkon beriladi
Fanlarni tanlash imkoni yo‘q	Fanlarni tanlashga imkon beriladi
Fan rejasidagi soat 100% auditoriyada tashkil etiladi	Fan rejasidagi 100/50% auditoriyada 50% esa mustaqil ta’lim sifatida olib boriladi
Fanlar bo‘yicha talabalar bilimini baholashda mustaqil ta’limga kam etibor qaratilgan	Talabalar bilinimi baholashda mustaqil ta’lim umumiy bahoning 50%ni tashkil etadi
Talabani fanni o‘rganishga bo‘lgan intilishi inobatga olinmagan	Talabani bilim olishga undaydi
Fanlar modulga keltirilmagan holda o‘qitiladi	Fanlar modullashtirilgan holda o‘qitiladi
Fanni qayta o‘zlashtirish imkoni yo‘q	Fanni qayta o‘zlashtirish imkoni (fanga

	ajratilgan kredit summasini to‘laganidan so‘ng) beriladi
Talaba hamda o‘qituvchining akademik almashinuv imkoni yo‘q	Akademik almashinuv imkoni mavjud
Talaba o‘zining dars jadvalini tuzish imkonini bermaydi	Talabaning dars jadvalini tuzish imkoni mavjud
Fan dasturi vazirlik tomonidan taqdim etiladi	Fan dasturi OTM tomonidan ishlab chiqiladi

3-Jadval. An’anaviy hamda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning taqqoslama jadvali.

XULOSA. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki OTMlarda o‘quv jarayoni kredit-modul tizimida olib borilsa tayyorlanayotgan yosh mutaxassislar bilimli, zukko, har tomonlama rivojlangan kadr etib tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. OTM larda kredit-modul tizimini rivojlantirish quyidagi ijobiy natijalarga erishishga xizmat qiladi:

talabalarning hamda professor-o‘qituvchilarning yuki kamayadi;

amaliy, laboratoriya mashg‘ulotlari korxonalarda olib borilib, nazariy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtiriladi (bu esa mashg‘ulot yanada tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi);

talabalarni mashg‘ulotlarda erkin fikrlashlarini, kreativ sifatlarini rivojlantirib ularda kasbiy kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi;

yurtimizdagi oliy ta’lim muassasalarini dunyodagi e’tirof etilgan top 500-1000 talik OTM lar ro‘yhatiga kirish imkoniyatini yaratadi;

talabalar, professor-o‘qituvchilarni respublikamizdagi hamda rivojlangan davlatlar OTM larida akademik mobil sifatida stajirovka qilish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847 sonli farmoni.,- Toshkent sh.,- 2019-yil 8-oktyabr (Decree No. PF-5847 of the President of the Republic of Uzbekistan "On Approving the Concept of the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030"., Tashkent city, October 8, 2019).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo‘yicha 2020-yil 2-noyabrda videoselektor yig‘ilishida so‘zlagan nutqlari (Speeches of the President of the Republic of Uzbekistan Sh.M. Mirziyoyev at the meeting of video selectors on November 2, 2020, regarding the discussion of the issues of improving the education system in our country and accelerating the development of the field of science.).

3. N.H.Avliyakulov, M.M.Axmetjanov, M.Tojiyev, .N.N.Musayeva Ta’lim texnologiyalari O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi - T.: «Fan va texnologiya», 2018. - 341 bet. ISBN: 978-9943-11-404-3 (Educational technologies Ministry of Higher and Secondary Special Education of the Republic of Uzbekistan - T.: "Fan and Technology", 2018. - 341 pages. ISBN: 978-9943-11-404-3).

4. Дехканова М.У. Таълим жараёнида ноанъанавий таълим технологияларини қўллаш усуллари. // Таълим технологиялари. –Тошкент: 2006. - № 1. - Б. 11. (Methods of using non-traditional educational technologies in the educational process. // Educational technologies. - Tashkent: 2006. - No. 1. - B. 11.).

5. M.U.Hasanova, M.G‘.Jumanova Kredit – modul tizimi va uning amaliyotga joriy etish tamoyillari (oliy ta’lim muassasalarida matematika o‘qitishda)// “Oriental Art and Culture”

Scientific-Methodical Journal - (3) III/2020 ISSN 2181-063X (Credit-module system and principles of its implementation (in teaching mathematics in higher education institutions)// "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (3) III/2020 ISSN 2181-063X).

6. S.K.Qahhorov, I.I.Raxmatov Sh.M.Muhammedov O‘zbekistonda modulli o‘quv texnologiyalariga asoslangan jarayon fan va ta'lim axborot 18(96-son). 2-qism. 2020 yil (The process based on modular educational technologies in Uzbekistan, science and education information 18(96). Part 2. 2020 year).

7. Ў.Вохидов Ўзбекистон Республикаси Олий Таълим Муассасаларида ECTS Кредит-Модуль Тизими: Асосий Тушунчалар ва Қоидалар “Эл-юрт умиди” жамғармаси ҳузуридаги Халқаро экспертлар кенгаши аъзоси 10- август 2020-йил(ECTS Credit-Module System in Higher Education Institutions of the Republic of Uzbekistan: Basic Concepts and Rules Member of the International Council of Experts under the Foundation "Hope of the Country" August 10, 2020.).

8. Norov, I., & Javlon, Y. (2021). ANALYSIS OF" STARRY NIGHTS. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 2(02), 1-3.

9. Xudoyberdiyev.N.M, BoratovF.Sh, Bektoshev.O.K, Meliziyayev.O.O Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 16 Sep 2021 Copyright (c) 2021 Author (s). This is an open-access article distributed under the terms of Creative Commons Attribution License (CC BY).To view a copy of this license, visit https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/

10. D.I.Abduvaliyeva Bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining kommunikativ- metodik kompetentligini takomillashtirishda kredit - modul texnologiyasi va uning didaktik asoslari // Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari 2022/ 5 – son (Credit-module technology and its didactic foundations in improving the communicative-methodical competence of future foreign language teachers // Scientific information of Tashkent State Pedagogical University 2022/ 5 - issue.).

11. M.L.Boltayeva Kredit–modul ta'lim tizimida talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatining dolzarbligi // Ученый XXI века • 2022 • № 5-1 (86)(The relevance of independent educational activities of students in the credit-module education system // Uchenyy XXI veka • 2022 • No. 5-1 (86).).

12. Q.O.Mashrapov, D.U.Djurayeva Texnik yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalarni kredit-modul tizimi shartlari asosida o‘qitish// Международный научный журнал № 9 (100), часть 3 «Научный импульс» апреля , 2023 (Teaching students studying in the technical direction based on the conditions of the credit-module system// Mejdunarodnyy nauchnyy zhurnal No. 9 (100), chapter 3 "Nauchnyy impuls" April, 2023.).

INTERNET MA’LUMOTLARI:

13. https://apriori-nauka.ru/uz/education/dostoinstva-i-nedostatki-tradicionnoi- sistemy-obucheniya.html